


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
RESPUBLIKA O‘RTA TIBBIYOT VA FARMATSEVTIKA XODIMLARI  
MALAKASINI OSHIRISH VA IXTISOSLASHTIRISH MARKAZI**

**«KELISHILDI»**

Respublika o‘rta tibbiyot va  
farmasevtika xodimlari  
malakasini oshirish va ularni  
ixtisoslashtirish markazi  
hududiy xay’at raisi

M. F. Xakimova   
« 03 » 2025 y.



**« TASDIQLAYMAN»**

Respublika o‘rta tibbiyot va  
farmasevtika xodimlari  
malakasini oshirish va ularni  
ixtisoslashtirish markazi  
direktori

L. X. Musadjanova   
« 03 » 2025y.



**Bilimlar sohasi: Sog‘liqni saqlash**

**“DERMATOVENEROLOGIYA VA KOSMETOLOGIYADA  
HAMSHIRALIK ISHI”**

(sikli bo‘yicha malaka oshirish guruhlariga uchun)

**O‘QUV DASTURI**

**(144-kredit )**

**Toshkent-2025 yil**

**Tuzuvchilar:**

L.X. Musadjanova

Respublikasi o'rtta tibbiyot farmatsevtika  
xodimlarini malakasini oshirish  
va ularni ixtisoslashtirish markazi  
direktori, t.f.d. professor.

M.L.Rosstalnaya

Respublika ixtisoslashtirilgan  
dermatovenerologiya va kosmetologiya  
ilmiy-amaliy tibbiyot markazi ilmiy

D.T. Abdullayeva

Respublika o'rtta tibbiyotfarmatsevtika  
xodimlarini malakasini oshirish va ularni  
ixtisoslashtirish markazi o'qituvchi  
xodimi t.f.n.

**Takrizchilar:**

D. Ikramova.

Respublika ixtisoslashtirilgan  
dermatovenerologiya va kosmetologiya  
ilmiy-amaliy tibbiyot markazining  
"Mutaxassislar stajirovkasi va klinik  
ordinatorlarni tayyorlash bo'limi"  
metodisti, t.f.n

Z.Z.Imamova

Respublika o'rtta tibbiyot va farmatsevtika  
xodimlari malakasini oshirish va ularni  
ixtisoslashtirish markazining o'quv ishlari  
bo'yicha direktor o'rinbosari

O'quv dasturi Respublika o'rtta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazining Pedagogik kengashida ko'rib chiqildi va tasdiqlashga tavsiya etildi.

«4» 23 2025.y.

Pedagogik kengash raisi



bayonnoma № 2/1

L.X.Musadjanova

O'quv dasturi direktorlar kengashida ko'rib chiqildi, muhokama qilindi, tasdiqlashga tavsiya etildi.

«5» 03 2025.y.

bayonnoma № 2

## 1. Kirish.

O‘zbekiston Respublikasida o‘rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash, malakasini oshirish, tibbiyot muassasalarida o‘rta tibbiyot xodimlari ishini xalqaro andozalarga mos tarzda tashkil etish borasida zamonaviy tizim yaratilgan.

Mazkur o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi “Tibbiyot va farmatsevtika ta’limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4310-sonli qaror, O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabr O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 2020 yil 7 apreldagi “Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 4666-sonli qaror, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli “Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish bo‘yicha me‘yoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to‘g‘risidagi”buyrug‘i, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2024 yil 28 oktabr 333-sonli “O‘rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashga qo‘yiladigan Davlat talablari” ijrosini ta‘minlash maqsadida ishlab chiqilgan.

Sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish davlat dasturlari doirasida aholiga dermatovenerologik va kosmetologik yordam ko‘rsatishni yaxshilashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. O‘quv dastur modul tizimi asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, o‘quv fanning mazmuni, uni o‘zlashtirish shakli va usullari mujassamlashtirilgan. Dastur mazmunida nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallash alohida e‘tiborga olingan.

O‘quv dasturi “Dermatovenerologiya va kosmetologiyada hamshiralik ishi” yo‘nalishining namunaviy o‘quv rejasi asosida tayyorlangan bo‘lib, o‘rta tibbiyot xodimlari (dermatovenerologik va kosmetologik bo‘limlari hamshiralari, feldsherlar)ni 144 kredit malaka oshirishlari uchun mo‘ljallangan.

O‘quv dasturda fanlar modullarga ajratilgan bo‘lib, kasbiy rivojlanish moduli fanlar hamda, mutaxassislik fanlar bo‘yicha ta’lim olayotganlarning har tomonlama kasbiy, ma‘naviy va siyosiy dunyoqarashlarini kengaytirishga qaratilgan yangiliklar, shuningdek, sog‘liqni saqlash tizimidagi islohatlar, tibbiyot sohasining ilm – fani va amaliyotining rivojlanishi tendensiyalari va yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalari to‘g‘risida ma‘lumotlar kiritilib, tibbiy talimda uzluksizligi va uzviyligini, fanlar va bo‘limlarni ketma-ketligini ta‘minlangan holda tinglovchilarni mustaqil ishlashga va fikrlashga qaratilgan o‘quv materiallarini qamrab olgan.

### 1.1 Мақсади:

O‘qish natijasida “Dermatovenerologiya va kosmetologiyada hamshiralik ishi” bo‘yicha o‘rta tibbiyot xodimlarining mavjud kompetensiyalarni takomillashtirish va kasbiy faoliyat uchun zarur yangi bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish va kasbiy darajasini oshirish. O‘rta tibbiyot xodimlarni har tomonlama yetuk, mutaxassisliklari bo‘yicha yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlariga erishish, dermatovenerologik va kosmetologik bemorlarni diagnostikasida, davolashda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish. Internet tarmog‘ida ishlash, axborot qidirish va ulardan foydalanish, tibbiyot axborot tizimlari xususiyatlari asoslarini bilish. Shu bilan bir qatorda ularga hamshiralik ishi mohiyati, uning sog‘liqni saqlash tizimidagi o‘ziga hosligi, normativ-huquqiy hujjatlar bilan ishlash, aholiga sifatli hamshiralik yordamini ko‘rsatish, bemorlar hayotiga

havf soluvchi xolatlarda shoshilinch yordam ko'rsatish, profilaktik tadbirlar majmuasini amalga oshirish bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni chuqurlashtirish va yangilash.

### **1.2 Vazifalari:**

- Umumiy malaka oshirish o'quv jarayonini modulli tibbiy ta'lim tamoyili bo'yicha, zamonaviy, isbotlangan tibbiyotga asoslangan halqaro ilmiy-amaliy ma'lumotlarni davlat talablariga mos holda tuzilgan o'quv dasturi bo'yicha tizimli tashkillashtirish
- davolash profilaktika muassasalarida ko'rsatiladigan profilaktik, tashhishlash va davolash uchun kerakli amaliy ko'nikmalarni mustaqil qo'llashga tayyorgarlikni shakllantirish;
- amaliyotda sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar va direktiv hujjatlarni ish faoliyatida qo'llay bilishni o'rgatish;
- zamonaviy klinik protokollar va standartlar bilan tanishtirib, ular bilim, malakaga asosida ishlash ko'nikmalarini yangilash va mukammallashtirish;
- etika va deontologiyaning zamonaviy jihatlari bilan tanishtirish;
- aholi o'rtasida to'g'ri, ratsional ovqatlanish, zararli odatlarga qarshi kurashish, sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash, aholini sog'lomlashtirish tadbirlarini yangilash;
- aholi o'rtasida tibbiy madaniyatni oshirish, aholi orasida teri va tanosil kasalliklarini tarqalishini oldini olish, dispanser kuzatuvini olib borishni takomillashtirish;
- aholi o'rtasida ekologiyani muhofaza qilishni, ekologik toza mahsulotlarni tanlashni o'rgatish;
- hamshiralik jarayoni orqali tibbiyot hamshirasi amaliyot standartlarini, hamshiraning kasallik tarixi va hamshiralik tashxisi, shuningdek hamshiralik parvarishini amalga oshirish ko'nikmasini rivojlantirish;
- aholi orasida teri va tanosil kasalliklari bilan og'rigan bemorlarda hamshiralik parvarish ko'nikmalarini mustahkamlash;
- yuz terisi parvarish, kosmetologik muolajalar ko'nikmalarini, kasalliklar asoratlarini rivojlanishi oldini olish choralari o'rgatish, mustahkamlash;
- bemorlar hayotiga havf soluvchi holatlarda va kasallik asoratlarida shoshilinch tez tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini mukammallashtirish;
- favqulotda vaziyatlar, kechiktirib bo'lmaydigan holatlarini tahlil qila olish va kechiktirib bo'lmaydigan yordamni ko'rsatish qobiliyatini yangilash.

### **1.3. Ta'lim oluvchilar toifasi (kontingenti):**

O'quv dasturi davolash profilaktika muassasalari teri va tanosil kasalliklari, kosmetologiya bo'limlarida faoliyat olib borayotgan hamshiralarning malakaviy tavsifnomasi va lavozim yo'riqnomalariga muvofiq, mutaxassisligini *tasdiqlovchi hujjati* bo'lgan tibbiyot hamshiralari uchun mo'ljallangan.

### **1.4. O'quv dasturni o'zlashtira olish uchun zarur bo'lgan tinglovchi kompetensiyasi:**

- tibbiy etika va deontologiyani amalda qo'llay oladigan, shaxslararo muloqot ko'nikmalari asoslarini tushungan yetuk mutaxassis bo'lishi;
- hamshiraning huquqiy meyorlari, bemor huquqlari, roziligi, rad etishi, bolalarning yoshiga nisbatan hususiyatlarini bilishi, asosiy hayotiy ko'rsatkichlarni o'rganish;
- aholi salomatligini saqlash va ijtimoiy shart-sharoitlarni hisobga olgan holda teri va tanosil kasalliklarida yordam berishni amalga oshirish;
- tibbiyot psixologiyasi va shaxslararo muloqot ko'nikmalariga ega bo'lishi va uni amalga oshirish;
- teri va tanosil kasalliklari va kosmetologiyada hamshiralik ishi asoslarini bilishi;
- aholining turli kontingentlari orasida teri va tanosil kasalligini oldini olish maqsadida tibbiy tekshiruv –ko'riklarning ahamiyatini bilishi;
- tanosil kasalliklarda maxfiylik yoki xususiylikni ta'minlash;
- aholining sog'lig'ini mustahkamlash, ijtimoiy va maishiy sharoitlarga moslashishini (adaptatsiyasini) yaxshilash uchun ekologiyaning organizmga ta'sirini baholash usullarini mukammal bilishi;

- mutaxassisligi bo'yicha chuqur va yangilangan to'liq nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lgan, uzluksiz o'z malakasini oshirishga tayyor bo'lgan, o'zgaruvchan sharoitlarga tez moslasha oladigan bo'lishi kerakligi.
- dermatovenerologiya va kosmetologiyada bemorlar xolatini baholash, asosiy simptom va sindromlarni ajratish, og'ir va terminal xolatlarda, jarohatlarda, zaxarlanishlarda o'pkayurak reanimatsiyasini o'tkazish, shifokorgacha bo'lgan tez tibbiy yordam ko'rsatish.

### **1.5. Dasturning dolzarbligi:**

O'quv dasturining dolzarbligi amaliy tibbiy yordamning real ehtiyojlaridan kelib chiqib, amaldagi standart va bayonnomalar, dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillarida kasalliklar dignostikasi, zamonaviy davolash va profilaktika choralarini qo'llash, davlat dasturining asosiy yo'nalishlari, shuningdek tibbiyot huquqi bo'yicha amaldagi qonunchiligi, hamda zamonaviy ilm-fan yutiqlariga muvofiqligi, dermatovenerologiya va kosmetologiyada davolash-profilaktik tibbiyot muassasalarining o'rta tibbiy xodimlarining mehnatini oqilona tashkil qilish, tibbiyot fani va amaliyotidagi mavjud vaziyat o'zgarishini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

**1.6. Dastur hajmi:** 144 kredit (kuniga 6 kredit, haftada 36 kredit).

### **1.7. O'qish shakli:**

- kunduzgi - o'qish ishdan ajralgan holda
- on/offline, masofaviy / a'nanaviy o'qish ishdan ajralgan/ ajralmagan holda

### **1.8. Mashg'ulotlarni o'tish tartibi:**

Mashg'ulotlar "Tibbiy-sanitariya va farmasevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli buyrug'i va markazning ichki tartib-qoidalari asosida rejalashtiriladi va amalga oshiriladi.

Mashg'ulotlar 9<sup>00</sup> da boshlanib, 13<sup>40</sup> da tamom bo'ladi. Tushlik - 30 daqiqa.

**1.9. Malaka oshirishdan so'ng:** o'quv kursni to'liq o'zlashtirgan va yakuniy attestatsiyani topshirgan tinglovchilarga "Dermatovenerologiya va kosmetologiyada hamshiralik ishi" bo'yicha umumiy malaka oshirganligi haqida Davlat talablari namunasidagi sertifikat taqdim etiladi

## **II. REJALASHTIRILAYOTGAN TA'LIM NATIJALARI**

### **2.1. Rejalashtirilayotgan ta'lim natijalaridan so'ng takomillashtirilishi (yangilanishi) lozim bo'lgan kasbiy kompetensiyalar:**

- o'rta tibbiyot xodimining fikrlash, tahlil va sintez qilish, jamoa bilan ishlash va uni boshqarish, intizomlilik, boshlagan ishini mantiqiy yakuniga yetkazishga tayyorligini rivojlantiradi;
- o'z-o'zini baholash, tanqidiy tahlil qilish va to'g'ri qarorlarni qabul qilish, aholi sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash doirasida, aholi orasida tibbiy madaniyat, sog'lom turmush tarzi, kasallik rivojlanishining oldini olish borasida profilaktik sanitariya targ'ibot tadbirlarini olib borish, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishda innovatsion texnologiyalarni keng tadbir etadi;
- aholi o'rtasida to'g'ri, ratsional ovqatlanish, zararli odatlarga qarshi kurashish, sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash, sog'lomlashtirish tadbirlarini o'tkazish qobiliyati yangilanadi;
- tibbiy madaniyatni oshirish, ko'p tarqalgan kasalliklarni oldini olish, dispanser kuzatuvini olib borishni tashkillashtirishni ko'nikmalari takomillashadi;
- hamshiralik jarayoni orqali tibbiyot hamshirasi amaliyot standartlarini, hamshiraning kasallik tarixi va hamshiralik tashxisi, shuningdek hamshiralik parvarishini amalga oshirish ko'nikmasi rivojlanadi;
- davolash muassasalarida axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish va ko'rsatkichlarini tahlil etish qobiliyati yangilanadi;
- zamonaviy tibbiy jihozlarni ishlatish, texnik ishlov berish va tashkil etish ko'nikmalari,

zamonaviy tekshiruv usullarida hamshirlik ishi ko'nikmalarini o'zlashtiradi va takomillashadi;

- teri va tanosil kasalliklarini davolashda qo'llaniladigan zamonaviy dori vositalari va davolash usullari bilan tanishadi;
- yuz terisi parvarishi, kosmetologik muolajalar bajarish ko'nikmalari mustahkamlanadi;
- favqulotda vaziyatlar, kechiktirib bo'lmaydigan holatlarini tahlil qila olish va kechiktirib bo'lmaydigan yordamni ko'rsatish qobiliyatini yangilaydi;
- hamshirlik ishini amalga oshirish va tashkil etishning ilg'or shakllari va usullarini ishlab chiqish, ommalashtirish, tajriba almashish hamda boshqa kasbiy faoliyat turlariga moslashtirish qobiliyatiga ega bo'ladi.

### 3. DASTUR MAZMUNI

#### 3.1. "Dermatovenerologiya va kosmetologiyada hamshirlik parvarishi" kursi o'quv rejasi

№	Модул ва mavzular nomi	Kredit	Auditoriya mashg'ulotlari		Seminar	Attestasiya
			Nazariy mashg'ulot	Amaliy mashg'ulot		
<b>1.0</b>	<b>Kasbiy rivojlantirish moduli</b>	<b>32</b>	<b>16</b>	<b>16</b>		
1.1	Modul.O'zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati.	4	4	-		
1.2	Modul. Tibbiyotda raqamli texnologiyalar	6	2	4		
1.3	Modul. Infekcion nazorat.	6	4	2		
1.4	Modul.Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi	6	2	4		
1.5	Modul. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik	10	4	6		
<b>2.0</b>	<b>Mutaxassislik fanlar moduli</b>	<b>104</b>	<b>44</b>	<b>60</b>		
2.1	<b>Modul.</b> Dermatovenerologiya va kosmetologiya sohasidagi zamonaviy muammolar.	6	4	2		
2.2	<b>Modul:</b> Teri-tanosil kasalliklari bilan og'rigan bemorlarni zamonaviy tekshirish usullari.	6	2	4		
2.3	<b>Modul.</b> Noma'lum etiologiyali teri kasalliklarini erta aniqlash.	18	8	10		
2.4	<b>Modul:</b> Terining yiringli kasalliklari va mikroblar bilan og'rigan bemorlarda hamshirlik parvarishi.	20	8	12		
2.5	<b>Modul:</b> Terining parazitlar va allergik kasalliklari bilan og'rigan bemorlarda hamshirlik parvarishi.	12	4	8		
2.6	<b>Modul:</b> Tanosil kasalliklari bilan og'rigan bemorlarni tekshirish usullari. Kasalliklarning oldini olish chora – tadbirlari.	12	6	6		
2.7	<b>Modul:</b> Yuz terisi parvarishi. Zamonaviy kosmetologik muolajalar.	24	8	16		

2.8	<b>Modul:</b> Favqulodda vaziyatlar va shoshilinch holatlarda tez tibbiy yordam ko'rsatish.	6	2	4		
3.0	<b>Tanlov fanlar moduli</b>	4			4	
	<b>Attestasiya</b>	4				4
	<b>Jami:</b>	<b>144</b>	<b>60</b>	<b>76</b>	<b>4</b>	<b>4</b>

**1.1.Modul.O'zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasining yaqin va istiqbolga mo'ljallangan Harakatlar dasturi muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilishidagi nutqida belgilab berilgan Sog'liqni saqlash tizimidagi dasturlarni samarali va to'liq amalga oshirishdagi asosiy vazifalar. Yangi O'zbekiston tibbiyoti-yangicha yondashuvlar asosida transformatsiya qilinayotgan tizim. Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida tibbiyotga doir ustuvor yo'nalishlarning mazmun-mohiyati. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tibbiy va sog'lomlashtirish turizmini yanada rivojlantirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarining ahamiyati. Sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirishdagi ustuvor vazifalar. "Aholi salomatligi-2030" milliy strategiyasining ustuvor yo'nalishlari,vazifalari va asosiy indikatorlari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020-yil 12-noyabrdagi "Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 4890-sonli shuningdek 2024 yil 5-sentabrdagi "Davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini joriy etishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi 311-sonli Qarorlarining mazmun-mohiyati. Davlat tibbiy sug'urtasi-sifatli tibbiy xizmat kafolati. Davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini joriy qilish bilan bog'liq islohotlar. Davlat tibbiy sug'urtasining huquqiy asoslari, mexanizmlari va joriy etish bosqichlari haqida.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tibbiy sug'urtasiga oid norma haqida.

### **1.2.Modul. Tibbiyotda raqamli texnologiyalar**

Tibbiyot sohasida raqamli texnologiyalaridan foydalanishdagi nazariy va amaliy bilimlarni egallash, Bemor ma'lumotlarini boshqarish, tibbiy statistik ma'lumotlarni to'g'ri tahlil qilish, tahlil qilingan natijalardan kelib chiqqan holda kasallikning oldini olish yoki davolash yo'llarini aniqlash, axborot texnologiyalaridan foydalanish borasida asosiy amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish.

Internet tarmog'ida ishlash, axborot qidirish va ulardan foydalanish, tibbiyot axborot tizimlari xususiyatlari, ma'lumotlar bazasini tashkil etish, mobil tibbiyot ilovalari va axborot xavfsizligi asoslarini, AI asosida diagnostika, chatbotlar va virtual yordamchilardan foydalanishni bilishi kerak. "Tibbiyotda raqamli texnologiyalar" o'quv modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

- tibbiyotda raqamli texnologiyalar tushunchalari va tasavvurlarining umumiyliigi;
- axborot tushunchalari va turlari. Tibbiyot masalarini yechishda informatikaning o'rni;
- hozirgi zamonda informatikaning o'rni va roli, ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatish.

### **1.3 Modul. Infekcion nazorat.**

Infekcion nazorat, maqsad va vazifalari. Shifoxona ichi infeksiyasi, kelib chiqish sabablari, profilaktikasi. Sanitariya epedimiologiya sohasida qo'llaniladigan me'yoriy hujjatlar. Davolash profilaktika muassasalarida shifoxona ichi infeksiyasini oldini olish chora tadbirlarini o'tkazishda o'rta tibbiy hodim vazifalari. Karantin va o'ta havfli infeksiyalar haqida tushuncha. Karantin va o'ta havfli infeksiyalar profilaktikasini amalga oshirish chora tadbirlari, himoyalaniish tamoyillari. OIV/OITS haqida umumiy ma'lumot. OIV/OITS tarqalishini oldini olish choralari. Avariya holatlar yuzaga kelganda tibbiy hodim taktikasi. Himoya kiyimlari va ulardan foydalanish tartibi.

### **1.4. Modul. Sterilizatsiyada zamonaviy usullari va texnika xavfsizligi**

Sterilizatsiyani olib borish xonalaridagi aseptika va antiseptika tadbirlari. Sterilizatsiya va avtoklavlash tadbirlariga tinglovchilarni amaliy tomondan o'qitish va o'rgatish. Mashg'ulotlar davomida markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan sterilizatsiya bo'limlari turlari xaqida tushuncha berish, zamonaviy sterilizatsiya apparatlari bilan tanishtirish, texnika xavfsizligi

masalalari bo'yicha ma'lumotlar berib borish. Asosiy diqqat va e'tiborni sterilizatsiya ishlarini to'g'ri olib borish, sterilizatsiyaning sifatli bo'lishini ta'minlovchi tadbirlar va uni tekshirish uchun zarur indikatorlardan to'g'ri foydalanish va ishlatish qoidalariga to'la amal qilish.

### **1.5. Modul. Sog'lom turmush asoslari, to'g'ri ovqatlanish mezonlari va jismoniy faollik.**

Sog'lom turmush tarzini tashkil etish asoslari. Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda maqsadli guruhlar bilan ishlash. Atrof muhit va ekologik omillarning salomatlikka ta'siri, to'g'ri ovqatlanish prinsiplari, kun tartibini to'g'ri tashkil etish, jismoniy faollik va chiniqishning salomatlikdagi ahamiyati, zararli odatlarning organizmga ta'siri, tibbiy ko'riklarni tashkil etish va aholini jalb etish.

### **2.1. Modul: Dermatovenerologiya va kosmetologiya sohasidagi zamonaviy muammolar.**

Dermatovenerologiya va kosmetologiya fanining rivojlanishi. O'zbekiston Respublikasi SSV tomonidan chiqarilgan mutaxassislikka oid amaldagi buyruqlar, qarorlarning mohiyati, ular bilan tanishgan holda, ishni tashkil etib ishlash.

Aholi o'rtasida teri - tanosil kasalliklarining tarqalishi muammolarini o'rgatish, aniqlash va ularni keng tarqalishini oldini olish va kamaytirishga qaratilgan profilaktik tadbirlarning ahamiyati. Terining anatomiya va fiziologiyasi. Bolalar va keksalar terisining o'ziga xos xususiyatlari. Teri kasalliklarining umumiy simptomatikasi. Terini ko'zdan kechirishning ahamiyati. Birlamchi va ikkilamchi morfologik elementlar va ularni o'rganish. Teri-tanosil kasalliklarida bemor muammolarini aniqlash, hamshira parvarishini amalga oshirish.

### **2.2 Modul. Teri-tanosil kasalliklari bilan og'rikan bemorlarni zamonaviy tekshirish usullari.**

Teri va teri-tanosil kasalliklari diagnostikasida qo'llaniladigan zamonaviy klinik tekshiruv usullari. Teri va teri-tanosil kasalliklari bilan og'rikan bemorlarni tekshiruv usullarida hamshiralik ishi. Teri kasalliklarida ichki a'zodagi o'zgarishlarni aniqlash. Limfa tugunlarida bo'ladigan o'zgarishlar va ularni ko'zdan kechirish. Teri kasalliklarida zamonaviy laborator (bakteriologik, serologik va biokimyoviy) va instrumental tekshirish usullari va ularga bemorlarni tayyorlash. Bemorlarga tashxis qo'yishda dermografizmning ahamiyati. Terini parvarish usullari. Terini o'ziga xos xususiyatlari. Bemorlarni muolajaga tayyorlash va teri gigiyenasi. Teri muolajalarini bajarish.

### **2.3. Modul. Noma'lum etiologiyali teri kasalliklarini erta aniqlash.**

Noma'lum etiologiyali teri kasalligi to'g'risida umumiy tushuncha, etiologiyasi, kasallik turlari. Terida bo'ladigan morfologik toshmalarning turi. Noma'lum etiologiyali teri kasalligi bilan og'rikan bemorlarni klinik tekshirish. Tashxis qo'yishda zamonaviy laboratoriya tekshiruvlarining ahamiyati.

Ekzema kasalligi etiologiyasi, klinikasi, toshma xususiyatini baholash, kechishi. Ekzema kasalligi bilan og'rikan bemorlarni fizikal tekshirish, laboratoriya tekshiruv, maxsus tekshirish usullari. Ekzema umumiy va mahalliy davolash muolajalari. Ekzema kasalligi bilan og'rikan bemorlarni parvarish qilish. Ekzema kasalligida parhezning ahamiyati. Psoriasis kasalligi etiologiyasi, klinikasi, toshma xususiyatini baholash, kechishi. Psoriasis kasalligi bilan og'rikan bemorlarni fizikal, laboratoriya, maxsus tekshirish usullari. Psoriasis kasalligi bilan og'rikan bemorlarni umumiy va mahalliy davolash. Psoriasis kasalligini davolashda mahalliy muolajalarni ahamiyati. Psoriasis kasalligi bilan og'rikan bemorlarni parvarish qilish va oldini olish. Psoriasis kasalligida parhezning ahamiyati.

### **2.4. Modul. Terining yiringli kasalliklari va mikroblar bilan og'rikan bemorlarda hamshiralik parvarishi.**

Terini yiringli kasalliklari to'g'risida umumiy tushuncha. Kasallikning kelib chikish sabablari, bemorlarni klinik tekshirish. Tashxis qo'yishda zamonaviy laboratoriya tekshiruvlarining ahamiyati. Bemorlarni umumiy va mahalliy davolash usullari, bemorlar terisini parvarishlash. Teri gigiyenasi. Kasallikni asoratlarini oldini olishda hamshiraning o'rni. Bemorlarga kasalliklarni asoratlarini oldini olish bo'yicha tavsiyalar berish. Terini yiringli kasalliklarida parhezning ahamiyati.

Piodermit kasalligi etiologiyasi, klinikasi, toshma xususiyatini baholash, kechishi, davolash va hamshira parvarishi. Piodermit kasalligi bilan og'rikan bemorlarni fizikal tekshirishni, laboratoriya tekshiruv, maxsus tekshirish usullari. Belgilari va davolash usullari. Bemorlar bilan muloqat qoidalari, hamshira tashxisi, hamshira parvarish rejasini tuzish va amalga oshirish. Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda stafilokokkli piodermitlar, davosi va profilaktikasi. Piodermit kasalligi bilan og'rikan

bemorlarni umumiy va mahalliy davolash, parvarish qilish. Teri va teri ortiqlari mikozi to'g'risida umumiy tushuncha. Dermatomikoz kasalligi etiologiyasi, kasallik turlari, terida bo'ladigan morfologik toshmalarning turi, mikoz kasalliklarining umumiy belgilari. Teri va teri ortiqlari mikozi bilan og'rikan bemorlarni klinik tekshirish. Tashxis qo'yishda zamonaviy laboratoriya tekshiruvlarining ahamiyati. Dermatomikoz kasalligi bilan og'rikan bemorlarni fizikal tekshirish, laboratoriya tekshiruvi, maxsus tekshirish usullari. Bemorlarni umumiy va mahalliy davolash usullari. Teri va teri ortiqlari mikozi bilan og'rikan bemorlar terisini parvarishlash. Kasallikni profilaktikasi, asoratlarini oldini olish. Teri gigiyenasi.

## **2.5. Modul. Terining parazitlar va allergik kasalliklari bilan og'rikan bemorlarda hamshiralik parvarishi.**

Teri parazitlar kasalligi haqida umumiy tushuncha, kelib chiqish sabablari, kasallik turlari. Teri parazitlar kasalliklarining umumiy belgilari, hamshiralik parvarishi maqsadlari va vazifalari. Teri parazitlar kasalligi: Lepra, qo'tir, pedikulyoz, leshmaniyoz, tripanosomoz kasalligi haqida umumiy tushuncha, kelib chiqish sabablari, kasallik turlari, tekshirish, zamonaviy laboratoriya tekshiruvlari, hamshiralik parvarishida o'ziga xos xususiyatlari, parvarish maqsadlari va vazifalari. Umumiy va mahalliy davolash usullari. Teri gigiyenasi. Kasallikni profilaktikasi, asoratlarni oldini olish. Teri allergik kasalliklari haqida umumiy tushuncha, kasallikni etiologiyasi kasallik turlari, terida bo'ladigan toshmalarning turi. Teri allergik kasalliklarining umumiy belgilari. Bemorlarni davolash usullari. Teri gigiyenasi. Kasallikni profilaktikasi, asoratlarini oldini olish.

## **2.6. Modul. Tanosil kasalliklari bilan og'rikan bemorlarni tekshirish usullari.**

### **Kasalliklarning oldini olish chora – tadbirlari.**

Anogenital kasalliklari turlari, etiologiyasi, yuqish yo'llari, klinik belgilari, kasalligi asoratlari. Bemor muammolarini aniqlash hamshiralik parvarishi maqsadlari va hamshiraning tutgan o'rni. Zaxm, so'zak kasalliklarida hamshira parvarishi. Kasallik profilaktikasi, hamshira parvarishi. Xlamidioz, trixomoniaz etiologiyasi, yuqish yo'llari, klinik belgilari, zamonaviy davolash usullariga asoslangan holda bemorlarni parvarishlash, dispanser nazorati. Tug'ma zaxm va uning oldini olish. Kasallik belgilari, rivojlanishi, tashxisi, laboratoriya tekshiruvlari va davolash usullari. Jinsiy yo'l bilan yuqadigan boshqa yuqumli kasalliklar va ularni oldini olish chora-tadbirlari.

## **2.7. Modul. Yuz terisi parvarishi. Zamonaviy kosmetologik muolajalar.**

O'zbekistonda va dunyoda dermatokosmetologiyaning rivojlanishi. Yuz tuzilishini kosmetologik jihatdan anatomiyasi va fiziologiyasi, yoshga bog'liq xolda teridagi o'zgarishlar, teridagi kosmetik kamchiliklarni korreksiyasi va diagnostikasi asoslari. Kosmesevtika haqida tushuncha. Kosmesevtik vositalarning xususiyatlari. Yuz terisining o'ziga xos xususiyatlari, parvarish usullari, muolajalarini bajarish, gigiyenasi. Bemorlarda yuz terisi parvarishi va kosmetologik muolajalarga oid muammolarni aniqlash. Yuz teri parvarishi va kosmetologik muolajalarning salbiy va ijobiy tomonlari. Zamonaviy kosmetologik muolajalar va ularni qo'llanishi. Profilaktik kosmetologiya. Yuz va bo'yin terisini hususiyatiga ko'ra parvarishining asosiy qoidalari. Terini tozalash texnikasi, turlari. Piling, pilinq turlari. Krioterapiya. Massaj, massaj uslublari va turlari. Kosmetologiyada fizioterapevtik muolajalarni qo'llash va ularning ahamiyati. Epilyasiya, epilyasiyaning zamonaviy usullari. Teri parvarishi uchun kosmetik vositalarning turlari va ularning tarkibi.

## **2.8. Modul. Favqulodda vaziyatlar va shoshilinch holatlarda tez tibbiy yordam ko'rsatish.**

Favqulodda vaziyatlar haqida asosiy tushuncha. Favqulodda vaziyatlar, ularning sabablari, turlari. Tibbiy saralash va triaj asoslari. Shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish bosqichlari va qoidalari. Ommaviy talofatlar holatida evakuatsiya va birinchi yordam ko'rsatish tamoyillari. Qon ketishni to'xtatish usullari. Yengil va og'ir kuyishlarda tibbiy yordam ko'rsatish. Elektr jarohatlari, ochiq va yopiq jarohatlar, sinishlar, uzoq muddat ezilishda shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish. Hushdan ketish, kollaps, shok, koma haqida umumiy ma'lumot. Hushdan ketish, kollaps holatlarida bemorga yordam ko'rsatish. Shok holatlarida yordam ko'rsatish algoritmi (gipovolemik, anafilaktik, travmatik). Komatoz holatda bemorni baholash va dastlabki yordam ko'rsatish. Terminal holat bosqichlari. Klinik va biologik o'lim belgilari. CPR – yurak-o'pka reanimatsiyasining nazariy asoslari. Kattalar va bolalarda yurak massaji va sun'iy nafas berishni o'tkazish algoritmi.

## **4.DASTURNI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILIIY-PEDAGOGIK TA'MINOTI**

### **4.1. O'quv bazalari:**

Respublika o'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Shifokorlar ko'chasi-2, 14-uy, davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

**Amaliyot bazasi:** davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

### **4.2. Mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur jihozlar ro'yxati:**

Modul bo'yicha dars olib borish uchun nazariy, amaliy va seminar darslar o'tiladigan o'quv auditoriyalari. Multimediali jamlanma: slaydlar to'plami bo'lgan rrt ko'rinishli ma'ruzalar, SD diskda ko'rgazma materiallar, ekran, videofilmlar. Klinik amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash trening o'quv xonasi, mulyaj, fantom v.b jihozlar.nazorat savollarining elektron ko'rinishi, vaziyatli masalalar, va test savollari.

Mavzular bo'yicha turli jadvallar, tasviriy ko'rgazma va qo'llanmalar.

### **4.3. Adabiyotlar ro'yxati.**

#### **4.3.1. Qonunchilik va meyoriy-huquqiy xujjatlar ro'yxati**

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi "Tibbiyot va farmasevtika ta'limi va ilm-fani tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ- 4310-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 apreldagi "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va yanada uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4666-sonli qarori.
- 3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.12.2018 yil PQ 4063-sonli "Yuqumli bo'lmagan kasalliklarning profilaktikasini, sog'lom turmush tarzini qo'llab -quvvatlash va aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish chora- tadbirlari to'g'risida" gi Qarori
- 4.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 11 noyabr PF 4887-sonli "Aholining sog'lom ovqatlanishi va jismoniy faolligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi" farmoni
- 5.O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli "Tibbiy-sanitariya va farmasevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish buyicha meyoriy xujjatlarni yanada takomillashtirish to'g'risidagi" buyrug'i.
- 6.O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining meyoriy hujjatlari.

#### **4.3.2. Tavsiya etilgan adabiyotlar:**

1. Eshboyev E. X. Dermatovenerologiya. Toshkent, Ijod-Press, 2019.
2. Yunusjonova. Z.S. Mirzayeva S.A."Psixologik parvarish" Toshkent. 2014 y
3. Belousova. A. K. «Teri-tanosil kasalliklari. Atlas» Toshkent 2014y.
4. E.X.Eshboyev Teri va tanosil kasalliklarini aniqlashning laboratoriya diagnostikasi» Toshkent, 2014 y.
5. Shukurov. H.I, Qanoatov. S.Q. "Jamoada hamshiralik ishi" Toshkent. 2013 y.
6. Zokirova. K.O'.To'xtamatova. D.O'. Mirzayeva.S.A "Hamshiralik ishi asoslari" 2013 y.
7. Vaisov A.Sh. Teri – tanosil kasalliklari. Toshkent, 2009.
8. Teri-tanosil kasalliklari — Vaisov A.Sh., Toshkent, 2004.
9. A.A.Abduqodirov, A.G.Xayitov «Axborot texnologiyalari», Toshkent "O'qituvchi ta'minoti", Toshkent Mehnat -2022 yil.
10. A.Axmedov, N.Taylaqov "Informatika", Toshkent, O'zbekiston -2022y.
- 11.Sattorov "Informatika va axborot texnologiyalari" Toshkent, O'qituvchi-2023y
- 12."e-Salomatlik Tizimi: Qo'llanma va Statistika 2024 O'zbekiston Sog'liqni Saqlash Vazirligi (2024).
13. Е.Аваков, О.В. Чурилова, А.М. Шарипов "Руководство по оказанию первой неотложной доврачебной помощи" 2010г.
14. Y.Allayorov Y.Tojiboyev "Favqulotda vaziyatlarda tez tibbiy yordam asoslari" 2007 y.Toshkent.

#### **4.3.3. Elektron ta'lim resurslari**

[www.edu.uz](http://www.edu.uz)

[www.minzdrav.uz](http://www.minzdrav.uz)

<http://www.medpoisk.ru/>  
<http://www.rusmedserv.com/>  
[www.medi.ru](http://www.medi.ru)  
[www.medlinks.ru](http://www.medlinks.ru)  
[www.medscape.com](http://www.medscape.com)  
[www.medland.ru](http://www.medland.ru)  
[www.med-lib.ru](http://www.med-lib.ru)  
[www.ksmed.ru/pat/gynecology](http://www.ksmed.ru/pat/gynecology)  
[www.medsan.ru](http://www.medsan.ru)

## **5. YAKUNIY ATTESTASIY.**

### **5.1. Yakuniy attestasiyaga qo'yiladigan talablar, o'tkazish shakli va baholash mezonlari.**

Yakuniy attestasiya O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash Vazirligining 2020yil 15 iyundagi 160-sonli buyrug'i 3-ilovasidagi «Tibbiy-sanitariya va farmasevtika kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta'lim muassasalarida tinglovchilarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini baholash to'g'risidagi Nizom» ga asosan o'tkaziladi.